MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIIY NITQQA O‘RGATISH

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
zamirahoneraliyeva22@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7677226

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda nutqini boyitish va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish bo`yicha fikr yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar xatti-harakat motivining rivojlanishida axloq va nutqning roli, bolalar o‘z xatti-harakatlarini anglaganlari sari axloqiy motivlarning ya’ni ijtimoiy axloqiy qoidalariga rioya qilish motivlari kuchayib borishi, bolaning egoistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtayi nazaridan harakat qilishga o‘rganishi usullar asosida yoritib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Motiv, egoistik manfaat, mantiqiy fikrlash, badiiy tafakkur, burch hissi, bahs-munozara, intelektual hissiyot, instink, kommunikativ yondoshuv

IN MTT'S PREPARATORY GROUPS FOR SCHOOL, CHILDREN ARE TAUGHT TO THINK LOGICALLY AND TO FIND SOLUTIONS IN CONTROVERSIAL SITUATIONS AND ARTISTIC SPEECH

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna
Teacher of Kokan University

Annotation: Focuses on enriching speech and teaching logical thinking in the development of artistic thinking of children of preschool age . The role of morals and speech in the development of the behavioral motive of preschool children, as children understand their behavior, moral motives, i.e., the motivation to comply with social moral rules, become stronger, they are encouraged to act from the point of view of social interest, not egoistic interests of the child. It is explained on the basis of learning methods.

Key words and phrases: Motive, egoistic interest, logical thinking, artistic thinking, sense of duty, debate, intellectual feeling, instinct, communicative approach,

“Kelajak bog‘chadan boshlanadi – bu baland parvoz so‘z emas. Aslida vatanparvarlik, el-yurtga fidoiylik, bir qarashda oddiy, lekin hayot talablariga bo‘lgan ana shunday dolzarb ishlardan boshlanadi”. ***Sh.M.Mirziyoyev***

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-ona zimmasiga uni aqliy sog‘lom, barkamol va yetuk farzand qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yiladi. Allomalar aytadiki, har bir millatning saodati, davlatni tinchi va rohati farzand tarbiyasiga bevosita bog‘liqdir. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida o‘z qadr-qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelganlarida o‘z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladi. Keyinchalik turli o‘yin va majburiy faoliyatlar davomida bolalar jamoasiga qo‘shilib, o‘z tengqurlarining hurmatini qozonishga intiladilar, ya’ni boshqa bolalarga ham har tomondan yaxshi ko‘rinishga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar xatti-harakat motivining rivojlanishida axloqiy motivlarini roli nihoyatda kattadir. Bolalar o‘z xatti-harakatlarini anglaganlari sari axloqiy motivlarning ya’ni ijtimoiy axloqiy qoidalariga rioya qilish motivlari kuchayib boradi. Bola endi o‘zlarining egoistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtayi nazaridan harakat qilishga o‘rgana boshlaydilar. Masalan bolalar o‘zlari yoqtirgan bolalarga eng yaxshi o‘yinchoqlarni beradigan hatto va o‘zlarining shirinliklarini ham bo‘lib beradigan bo‘ladilar. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi bolalar kichik yoshdagi bolalarga har doim yordam berishga ularda yuzaga kelgan muammolarni yechishga, harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ana shunday motivlar bilan birga o‘z-o‘zini anglash, o‘zining hatti-harakatlariga baho berish, mantiqiy fikrlash va yuzaga kelgan bahs-munozarali vaziyatlarda yechim topishga harakat qila boshlaydilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta odamlar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga intilar ekan, katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o‘rnatgan tartib qoidalariga so’zsiz bo‘ysinishga harakat qiladilar. Katta yoshdagi MTT bolalarida yuzaga kela boshlagan ma’naviy hissiyotlardan biri burch hissidir. Burch hissining yuzaga kelishi ularning xulq atvorlarini o‘zlari mustaqil idora qila boshlaganliklaridan dalolat beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning burch hissi nima yaxshiyu, nima yomonligini anglashlari bilan, ya’ni axloqiy tasavvurlarining yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Katta odamlar tomonidan berilgan birorta topshiriqni bajarayotganlarida mamnunlik, shodlik hislari paydo bo‘lar ekan, biron tartib-qoidani buzib qo‘yganlarida qandaydir hadiksirash hissi tug‘iladi.

Har narsaga qiziqish kuchli bo‘lganligi tufayli maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan va ma’lum darajada aqliy zo‘r berishni talab etadigan turli didaktik o‘yinlarda hamda nutq o‘stirish, son-sanoq bo‘yicha o‘tkaziladigan ta’limiy faoliyatlarda ularning intelektual hissiyotlari o‘sib boradi.

Intelektual hissiyotlarning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish-qobiliyatlarining o‘sishiga g‘oyat katta ahamiyatga ega. Shu sababli bu yoshdagi bolalarning intelektual hissiyotlarining rivojlanishiga alohida e’tibor bilan qarash kerak. Demak, bolalarga turli savollar berish, fan va texnikaning ajoyib yangiliklari, hayvonlar va ularning xulq atvorlari, yashash sharoitlari, instinklari haqida qiziqarli misollar asosida suhbat o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy hissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik, jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Shubhasizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoatchilik hislari bilan katta odamlarda uchraydigan bunday hislar o‘rtasida g‘oyat katta farq qiladi. Bolalar MTTda har kuni birga o‘ynash, birga o‘tirish, birga ovqatlanish orqali bir-birlariga o‘rganib, inoqlashib, o‘rtoqlashib qoladilar. Ular har birlarini ko‘rganlarida sababsiz bo‘lsa ham jilmayib hursand bo‘ladilar.

Bolalarda mantiqiy fikrlashni bahs-munozaralarda ishtirok etishni o‘rgatishda ta’limiy faoliyatlarda masalalar va mantiqiy savollar ko‘proq beriladi. Masalan mantiqiy savol tashqarida yomg‘ir yog‘moqda, qushlar qanday daraxtga qo‘nadilar? (javob: yomg‘ir yoqqanda qushlar ho‘l daraxtga qo‘nadilar). Teshik chelakda suvni qanday tashisa bo‘ladi? (javob: teshik chelakda suvni muzlatilgan holda tashisa bo‘ladi.)

Masalan: menda 8ta olma bor edi, shu olmadan 2 tasini Karimga berdim, 3 tasini Azizaga berdim, menda nechta olma qoldi? (javob: 3 ta)

Bolalarni badiiy tafakkurini rivojlantirishda nutqning ahamiyati kattadir. Bolalar nutqining rivojlanishi 0 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan davrni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligiga kommunikativ yondoshgan holda ularning nutqini rivojlantirib borish talab etiladi. Bolalar bog‘chasida har bir guruhda nutq o‘stirish bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining me’yori ko‘rsatilgan. O‘z vaqtida muntazam kundalik faoliyatda, mashg‘ulotlar jarayonida dasturda ko‘rsatilgan vazifalar amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

Bola 1- sinfga nutqi jihatidan benuqson holatda kelsa barcha fanlardan o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. –Ilk qadam davlat o‘quv dasturi og‘zaki nutqining, ya’ni lug‘at boyligining oshib borishini, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishini, tovush talaffuzini har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Nutq qobiliyati ma’lumki, kishilarning tug‘ma qobiliyati emas. Nutq bolalarda asta – sekin rivojlanadi.

Ba’zan bir xil yoshdagi bolalar nutqi kuzatilganda ular darajasining har xilligini ko‘rish mumkin. Demak bola nutqining rivojlanishi tevarak – atrofdagilarning (ota – onalarning, tarbiyachilarning) qanchalik e’tibor berishiga bog‘liqdir. Bolaning ilk yoshlik davridan boshlab oila a’zolari, bog‘chada tarbiyachilar har bir narsaning nomini to‘g‘ri aytib, chuchuk tilda gapirmasdan murojaat qilish kerak. 3-4 yoshli

bolalar nutqida hamma tovushlar mavjud bo‘lib, bu tovushlar ustida ishlash zarur. Chunki mazkur davr tovushlarni o‘zlashtirish davri hisoblanadi. To katta guruhgacha hamma tovushlar ustida ishlanadi.

Maktabda tayorlov guruhda esa aralashib ketadigan tovushlarni ajratishga o‘rgatiladi. Tovush talaffuzini tarbiyalash bo‘yicha ishni boshlashdan oldin tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning nutqi bilan tanishib chiqishi kerak. Nutqni tekshirish yilda ikki marta kuzda va bahorda olib boriladi. Kuzda ishlarini to‘g‘ri rejalashtirish, bahorda-qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida tekshirishda tarbiyachi:

a) tovush talaffuzi holatiga;

b) lug‘atiga;

c) ma’noli nutqiga e’tibor qaratadi.

Bola nutqidagi buzilishlar qayd qilinadi. Agar juda qo‘pol buzilishlar bo‘lsa, bolaning sog‘ligi bilan tanishib chiqishga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha bolaning 3 èshlik davrida turli yuqumli kasalliklar bilan og‘rishi, uning o‘sishini to‘xtatib qo‘yadi. Bu o‘z navbatida nutqining rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday bolalar bilan alohida ko‘proq ishlashni rejalashtirishga to‘g‘ri keladi.

Bolalar nutqini tekshirishda albomlar maqsadga muvofiq emas. Chunki albomning bir betiga bir qancha rasm yopishtiriladi. Bolalarga ko‘rsatilganda ularning diqqati bir rasmdan ikkinchi rasmga ko‘chadi. Shuning uchun bir tovush uchun mo‘ljallangan buyumni rasmlardan foydalanish kerak. Bunda shunday rasmlarni tanlash kerakki, bu rasmlarning nomlarida quyidagi tovushlar ishtirok qilsin. Bular: s, z, sh, ch, l, r, v, b, g, x, h, va boshqalar. Har bir tovush so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida keladigan bo‘lsin. Rasmlar rangli, bolalar diqqatini o‘ziga tortuvchi, mazmuni jihatidan bolalar yoshiga mos bo‘lishi kerak. Buyumli rasmlar 10x10 hajmdan kichik bo‘lmasligi kerak. Bolaning tovush talaffuzini tekshirish vaqtida buyumli rasmlar nomini ayttirishda lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi ham kuzatiladi. Gapda so‘zlar o‘rnini almashtirmayotganligi, bo‘g‘inlar tashlab keltirmayotganligi aniqlandi. Tarbiyachi so‘zlardan gaplar tuzishga, gaplarda bog‘lovchilarni ishlatishga, kelishik qo‘shimchalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishda mazmunli rasmlardan foydalanadi. Oldin ikki, keyin uch, to‘rt, so‘ngra undan ortiq so‘zlardan foydalanib gap tuzishga o‘rgatadi. Tarbiyachi bu ishlarni amalga oshirishda bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini ta’limning didaktik tamoyillarini hisobga oladi.

Agar rasmning nomini aytishda bola talaffuz etilishi lozim bo‘lgan tovushni biron marta ham ayta olmasa, aynan shu tovushni so‘zda emas, balki alohida o‘zini talaffuz ettirib ko‘riladi. Tarbiyachi oldin aytadi. Agar bola alohida talaffuz etsa keyin so‘zlarda to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatiladi. Bola nutqini tekshirish vaqtida uning noto‘g‘ri tovush talaffuzini, so‘zlarini gaplarini takrorlamaslik kerak. Bu bola nutqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hatto noto‘g‘ri tovush talaffuzining mustahkamlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Kundalik hayot jarayonida nutqini tekshirish vaqtida bolalar nutqining tezligi, so‘z jumlalarning aniqligi, ovozning jarangdorligiga, duduqlanishga tarbiyachi e’tibor beradi va ota-onalari bilan hamkorlikda kamchiliklarni bartaraf qiladi.

—Lug‘at boyligi,

—So‘zlarning qurilishi,

—Tovush talaffuzi,

—Izoh bo‘limlarini to‘ldiradi. Shunga asosan ertalab va kechki soatlarda qaysi bolalar bilan nima ustida ishlashni rejalashtiradi.

Xulosa va takliflat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson nechi yil yashashidan qat’iy nazar to‘qson yoshga kiradimi, yuz yoshga kiradimi hayoti davomidagi orttirgan tajriba va informatsiyalarni yetti yoshgacha bo‘lgan davrda olib bo‘lar ekan. Shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash va bahs-munozarali vaziyatlarda yechim topishga o‘rgatish, nutqlarini to‘g‘ri va ravon bo‘lishiga ko‘maklashishimiz va buning uchun turli interaktiv metod va usullardan ota-onalar hamda pedagoglar muntazam ravishda foydalanishimiz zarur.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari.

2. Ilk qadam davlat o`quv dasturi.

3. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi: O.U.Hasanboyeva,M.X.Tojiyeva, R.T.Akbarova. Toshkent -2011

4.Bolalar psixologiyasi: O.Qaniyev Toshkent-2013

5.Sog’lom farzand-oila quvonchi :M.Rejaboyeva, SH.Shomansurov Toshkent - 2015.